XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2021 - yil 31 - dekabr VI-41-150-8-0-K/21 Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyatining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 01/20-01-32/842-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2021-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qonunga muvofiq Surxondaryo viloyati mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 2 466,9 mlrd. so‘m, xarajatlari 4 453,9 mlrd. so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 1 989,0 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Surxondaryo viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2022-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Surxondaryo viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan

tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'i nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 17,5 mlrd. so'm miqdorida belgilansin.

Shahar va tumanlar budjetlarining 2022-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Ta'kidlansinki, Surxondaryo viloyati viloyat budjetining, shahar va tumanlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022-yil uchun viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 5 264,7 mln. so'mni hamda shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Mazkur Qonun bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilari kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

2022-yilda quyidagi soliqlar:

a) shahar va tumanlar budjetiga:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

Davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushadigan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i va alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig'i, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq to'liq hajmda taqsimlansin;

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga:

foyda solig'i (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan,

shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbayida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

boshqa tushumlar to‘liq hajmda o‘tkazilishi;

d) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Mamanov, Moliya bosh boshqarmasi B.Xursanov, Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tuman (shahar) hokimliklari va mas’ul boshqarma hamda tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni, birinchi navbatda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda

tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) davlat soliq inspektsiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib;

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) ga yuklatilsin.

13. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (M.Abduraxmanov) 2022-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining janubiy mintaqaviy inspektsiyasi (Sh.Toshtemirov) hamda shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar

faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (A.Xudayorov) viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha choralarni ko‘rsin.

16. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi (F.Tairov), tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Xaliqov) Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Namozov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish choralarini ko‘rsin.

18. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Xaliqov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov), viloyat moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022-yilning 1-iyuliga qadar 2021-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19. Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (E.Eshkeldiyev) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20. “Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (T.Alimov) va viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), viloyat IIB Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (I.Soipov), Davlat xizmatlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.Raxmonov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22. Davlat Moliyaviy nazorati Surxondaryo viloyati boshqarmasi Xalq ta’limi, Maktabgacha ta’lim va Sog‘liqni saqlash boshqarmalarining Ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengasha axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

23. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etsin va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklari tuman va shahar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman (shahar) hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

25. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Mamanov, xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26. Viloyat hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

27. Mazkur qaror “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” birlashgan gazetalarida rasmiy e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va viloyat hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Bobolov T.A.**

Халқ депутатлари Сурхондарё вилоят Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-150-8-0-K/21-сон қарорига
1-илова

Surxondaryo viloyatining 2022-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2023-2024-yillarga mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2022-yil uchun prognoz	2023-yil uchun mo‘ljal	2024-yil uchun mo‘ljal
1.	Yalpi hududiy mahsulot (mlrd. so‘m)	28 044	29 867	31 987
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati (foizda)	106,3	106,5	107,1
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan (foizda)	102,4	102,1	101,1
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati (foizda)	116,4	123,6	120,9
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati (foizda)	104,7	105,1	105,3
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati (foizda)	114,0	115,0	117,0

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-150-8-0-K/21-сон қарорига
2-илова

Surxondaryo viloyati mahalliy budjeti daromadlarining
2022-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**1 112 225 000,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	64 504 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	590 735 800,0
3	Aksiz solig‘i	78 586 200,0
	shu jumladan:	
	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	78 586 200,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	35 595 500,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	55 410 000,0
6	Davlat boji	116 255 000,0
7	Jarimalar	55 105 000,0
8	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	12 394 000,0
9	Yig‘imlar	28 487 000,0
10	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	41 223 000,0
11	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushum	20 000 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq	12 343 500,0
13	Boshqa tushumlar	1 586 000,0
II.	**Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**1 986 986 672,0**
Daromadlar hammasi		**3 099 211 672,0**

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-150-8-0-K/21-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

Xarajatlar miqdori, jami		**3 099 211 672,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 356 553 521,0
	shundan:	
	xalq ta’limi muassasalarini keng polosali internet tarmog‘iga ulanishini ta’minlash xarajatlari	3 732 056,0
	davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash uchun xarajatlar	33 128 000,0
	suv nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste’moli uchun xarajatlar	371 250 000,0
	melioratsiya obyektlarini ta’mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	43 550 000,0
	Maxsus texnikalar xarid qilish uchun	0,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	362 381 501,0
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	1 336 726 650,0
1.	**Xalq ta’limi boshqarmasi**	**319 451 257,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	164 769 894,0
	shundan:	0,0
	xalq ta’limi muassasalarini keng polosali internet tarmog‘iga ulanishini ta’minlash xarajatlari	3 732 056,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	154 681 363,0
2.	**Maktabgacha ta’lim boshqarmasi**	**71 877 609,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 646 498,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	68 231 111,0
3.	**O‘rta maxsus kasb hunar ta’lim boshqarmasi**	**955 262,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	955 262,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
4.	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**435 264 853,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	378 764 853,0

	shundan:	0,0
	davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash uchun xarajatlar	33 128 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	56 500 000,0
5.	**Madaniyat boshqarmasi**	**31 310 427,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	31 310 427,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
6.	**Turizm va sport bosh boshqarmasi**	**33 957 938,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	33 957 938,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7.	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	**3 141 603,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 141 603,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8.	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi (Ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari)**	**3 618 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 618 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9.	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**3 239 774,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 239 774,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10.	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**526 290 807,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	482 740 807,0
	suv nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste’moli uchun xarajatlar	371 250 000,0
	melioratsiya obyektlarini ta’mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	43 550 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11.	**O‘rmon xo‘jalik boshqarmasi**	**10 050 384,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 050 384,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12.	**Transport departamenti**	**2 292 142,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 292 142,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13.	**Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi**	**6 348 474,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 348 474,0
	shundan:	
	Maxsus texnikalar xarid qilish uchun	0,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
14.	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**7 841 715,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 841 715,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
15.	**Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish hududiy boshqarmasi**	**147 438,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	147 438,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi**	**5 403 612,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 403 612,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17.	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi**	**1 682 781,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 682 781,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18.	**Tibbiy ijtimoiy xizmatlar**	**46 634 152,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	46 634 152,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19.	**Bandlik bosh boshqarmasi**	**1 513 371,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 513 371,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
20.	**Qurilish bosh boshqarmasi**	**2 338 348,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 338 348,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
21.	**Adliya boshqarmasi**	**6 543 112,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 543 112,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22.	**Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi**	**11 326 762,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 326 762,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
23.	**Moliya bosh boshqarmasi**	**1 347 727 471,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 000 821,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	1 336 726 650,0
24.	**G‘aznachilik boshqarmasi**	**7 436 106,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 436 106,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
25.	**Pensiya boshqarmasi**	**13 856 989,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 856 989,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
26.	**Suv yo‘llari texnik uchastkasi**	**15 883 592,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 883 592,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
27.	**Issiqlik ta’minoti**	**101 532,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	101 532,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
28.	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi** **(Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari)**	**1 050 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 050 000,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
29.	**Maxsus ekspluatatsiya-montaj boshqarmasi**	**1 626 515,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 626 515,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
30.	**Davlat hokimiyat organlari**	**113 712 348,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	30 743 321,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	82 969 027,0
31.	**Ijtimoiy moslashuv markazlari**	**915 324,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	915 324,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
32.	**Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi**	**2 349 026,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 349 026,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
33.	**Xalq qabulxonasi**	**5 771 308,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 771 308,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
34	**Viloyat hokimligi rasmiy mehmonlar qabullar uyi**	**2 773 075,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 773 075,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
35.	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi**	**2 701 234,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 701 234,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
36.	**Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi**	**5 647 532,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 647 532,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
37.	**Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi**	**1 725 682,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 725 682,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
38.	**Monoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi viloyat boshqarmasi**	**1 447 410,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 447 410,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
39.	**Surxondaryo viloyati saylov komissiyasi kotibi**	**66 678,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	66 678,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
40.	**Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi kotibiyati**	**492 688,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	492 688,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
41.	**Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi**	**1 297 765,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 297 765,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
42.	**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi**	**6 533 332,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 533 332,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
43.	**Davlat arxivi boshqarmasi**	**3 234 883,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 234 883,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
44.	**O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi**	**17 052 486,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 052 486,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
45.	**Davlat xizmatlari agentligi viloyat boshqarmasi (FHDYo bo‘limlari)**	**2 119 521,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 119 521,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
46.	**Viloyat Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi**	**1 775 566,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 775 566,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
47.	**Kinomatagrafiya Surxondaryo viloyati bo‘limi**	**176 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	176 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
48.	**Boshqa tashkilotlar**	**10 507 788,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 507 788,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Халқ депутатлари Сурхондарё вилоят Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-150-8-0-K/21-сон қарорига
4-илова

Soliqlar va yig‘imlardan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2022-yil uchun ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/P	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq *	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq **	Yuridik shaxslar yer solig‘i ***	Yig‘imlar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	Ijara to‘lovlari
1	Termiz shahri	100	100	100	100	15	50	40	100	100	50		20	100
2	Oltinsoy tumani	100	100	100	100	80	50	80	100	100	50	100	20	100
3	Boysun tumani	100	100	100	100	50	50	40	100	100	50	100	20	100
4	Bandixon tumani	100	100	100	100	80	50	80	100	100	50	100	20	100
5	Muzrabot tumani	100	100	100	100	50	50	80	100	100	50	100	20	100
6	Denov tumani	100	100	100	100	30	50	80	100	100	50		20	100
7	Jarqo‘rg‘on tumani	100	100	100	100	40	50	50	50	100	50	100	20	100
8	Qumqo‘rg‘on tumani	100	100	100	100	40	50	80	100	100	50	100	20	100

9	Qiziriq tumani	100	100	100	100	40	50	80	100	100	50	100	20	100
10	Sariosiyo tumani	100	100	100	100	50	50	40	50	100	50	100	20	100
11	Termiz tumani	100	100	100	100	40	50	50	100	100	50	100	20	100
12	Uzun tumani	100	100	100	100	75	50	80	100	100	50	100	20	100
13	Sho‘rchi tumani	100	100	100	100	45	50	50	100	100	50	100	20	100
14	Sherobod tumani	100	100	100	100	40	50	20	100	100	50	100	20	100
15	Angor tumani	100	100	100	100	50	50	80	100	100	50	100	20	100

Izoh:

* Sherobod tumani bo‘yicha yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan mol-mulk solig‘i viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

** Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

*** Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik yer solig‘i viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-150-8-0-K/21-сон қарорига
5-илова

2022-yil uchun shahar va tumanlar budjetlari daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**1 354 691 000**	**2 691 417 650**
Termiz shahri	139 517 647	148 048 096
Oltinsoy tumani	81 590 187	194 872 359
Boysun tumani	68 533 398	142 649 682
Muzrabot tumani	66 462 671	144 278 256
Denov tumani	168 974 084	372 634 874
Jarqo‘rg‘on tumani	109 556 986	196 342 724
Qumqo‘rg‘on tumani	102 422 498	211 601 097
Qiziriq tumani	57 158 458	122 521 532
Sariosiyo tumani	105 706 806	214 688 459
Termiz tumani	60 435 549	106 090 279
Uzun tumani	86 852 947	199 586 411
Sho‘rchi tumani	100 660 583	225 292 490
Sherobod tumani	93 856 344	188 712 385
Angor tumani	68 018 511	130 250 208
Bandixon tumani	44 944 331	93 848 798

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-150-8-0-K/21-сон қарорига
6-илова

Shahar va tumanlar budjetlariga 2022-yilda ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
JAMI	**1 336 726 650,0**
shundan	
Termiz shahri	8 530 449,0
Oltinsoy tumani	113 282 172,0
Boysun tumani	74 116 284,0
Muzrabot tumani	77 815 585,0
Denov tumani	203 660 790,0
Jarqo‘rg‘on tumani	86 785 738,0
Qumqo‘rg‘on tumani	109 178 599,0
Qiziriq tumani	65 363 074,0
Sariosiyo tumani	108 981 653,0
Termiz tumani	45 654 730,0
Uzun tumani	112 733 464,0
Sho‘rchi tumani	124 631 907,0
Sherobod tumani	94 856 041,0
Angor tumani	62 231 697,0
Bandixon tumani	48 904 467,0

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-150-8-0-K/21-сон қарорига
7-илова

2022-yilda viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**17 260 510,0**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	**5 264 740,0**
2	Termiz shahri	**993 960,0**
3	Oltinsoy tumani	**743 330,0**
4	Boysun tumani	**698 450,0**
5	Muzrabot tumani	**697 510,0**
6	Denov tumani	**1 420 730,0**
7	Jarqo‘rg‘on tumani	**911 230,0**
8	Qumqo‘rg‘on tumani	**800 940,0**
9	Qiziriq tumani	**515 650,0**
10	Sariosiyo tumani	**1 001 710,0**
11	Termiz tumani	**697 670,0**
12	Uzun tumani	**810 870,0**
13	Sho‘rchi tumani	**790 460,0**
14	Sherobod tumani	**836 180,0**
15	Angor tumani	**721 200,0**

16	Bandixon tumani	**355 880,0**